

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**KAXAROVA MUXARRAM ABDUKADIROVNA**

**PIROLIZ MOYIDAN NAFTALIN BIRIKMALARINI AJRATIB OLIH VA  
ULAR ASOSIDA BIOLOGIK FAOL MODDALAR SINTEZI  
TEXNOLOGIYASI**

**02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundariyasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Kaxarova Muxarram Abdukadirovna**

Piroliz moyidan naftalin birikmalarini ajratib olish va ular asosida biologik faol moddalar sintezi texnologiyasi .....3

**Кахарова Мухаррам Абдукадировна**

Выделение нафталиновых соединений из пиролизного масла и технология синтеза биологически активных веществ на их основе .....21

**Kaxarova Muxarram**

Isolation of naphthalene compounds from pyrolysis oils and synthesis of biologically active substances on them based.....39

**Эълон қилинган илмий ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ  
List of published works .....43

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**KAXAROVA MUXARRAM ABDUKADIROVNA**

**PIROLIZ MOYIDAN NAFTALIN BIRIKMALARINI AJRATIB OLIH VA  
ULAR ASOSIDA BIOLOGIK FAOL MODDALAR SINTEZI  
TEXNOLOGIYASI**

**02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4840 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.nammti.uz](http://www.nammti.uz)) va “ZiyoNet” axborot ta’lim tarmog‘iga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Baxronov Hayot Nurovich**  
Kimyo fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Tojiyev Panji Jovliyevich**  
Texnika fanlari doktori, dotsent

**Mirxamitova Dilorom Xudayberdiyevna**  
Kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg‘ona politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil «27» dekabr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (+99869) 228-76-75; faks: (+99869) 228-76-71, e-mail: [niei\\_info@edu.uz](mailto:niei_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 333-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.:(+99869)228-76-75; faks:(+99869)228-76-71).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «14» dekabr kuni tarqatildi.  
(2024 yil «14» dekabrda № 2 raqamli reestr bayonnomasi)

**O.K.Ergashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik ilmiy kengash  
raisi, k.f.d., professor

**D.Sh.Sherqo‘ziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik ilmiy kengash  
kotibi, t.f.d., prof.

**J.M.Kadirxanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda jahon amaliyotida tarkibida organik birikmalari mavjud sanoat chiqindilarini zararsizlantirish va qayta ishlash uchun termik, kimyoviy, biologik, fizik-kimyoviy usullar hamda ularning birgalikdagi usullari qo'llaniladi. Dunyoda bu bilan bog'liq holda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini tadqiq etish va murakkab tarkibli organik chiqindilarni dastlabki saralash, quritish, mexanik qayta ishlash (maydalash, fraksiyalash, briketlash va hokazo) kabi bir nechta bosqichsiz qayta ishlashga imkon beruvchi texnologik jarayonlar majmuini yaratishga yo'naltirilgan ishlarni jadallashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyo miqyosida aromatik uglevodorodlar neft kimyosining muhim mahsulotlaridan biridir. Tabiiy resurslarni qazib olish, ulardan oqilona foydalanish, sanoat ishlab chiqarishini keng ko'lamda modernizatsiya qilish, yaratilgan innovasion yangiliklarni amaliyotga, shu jumladan, qishloq xo'jaligiga joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada mavjud sanoat obyektlarini texnik va texnologik yangilash, zamonaviy ilm-fan yutuqlari va ilg'or innovatsion texnologiyalarni jadal joriy etish, jahon bozorida barqaror talabga ega bo'lgan import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi raqobatbardosh korxonalar yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda keyingi yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish, qishloq xo'jaligida qo'llanuvchi kimyoviy vositalar va preparatlardan samarali foydalanish, import qilinadigan tovarlarni mahalliyashtirish bo'yicha muhim natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasining milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash deb nomlangan 3-yo'nalishida «milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan sanoat siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushini oshirish va sanoatda ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish<sup>1</sup>» kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, mahalliy xomashyolar asosida piroliz moyidan naftalin birikmalarini ajratib olish va naftalindan naftilsirka kislotasi sintezi unumini oshirish, shuningdek naftilsirka kislotasi ishlab chiqarishning takomillashtirilgan texnologiyasini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10 oktyabrdagi PQ-388-sonli "Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2021-yil 15-iyuldagi "Respublikada o'simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6262-son Farmoni va 2021 yil 13 fevraldagi PQ-4992-son "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 dekabrdagi "Kimyo sanoati uchun innovatsion kimyoviy ilmiy-ishlab chiqarish va ta'lim klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 753-sonli

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 yanvardagi PF-60 son «2022-2026 yillarda O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bugungi kunga qadar xorijda ko'plab olimlar tomonidan piroliz moylarini tahlil qilish va undan xomashyo sifatida foydalanish hamda naftilsirka kislotalar sintez qilish texnologiyasiga oid ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, D.Perondi, G.L.Starobinets, I.M.Korenman, S.M.Leshev, T.N.Genarova, B.Danon, P.T.Williams, M.R.Islam, S.Wiriyaumpaiwong, N.A.Nkosi, Y.Cumali, K.Mathur va boshqalar piroliz moylarining tarkibini aniqlash va uni tarkibiy qismlarga ajratib, toza moddalar olish usullari doirasida tadqiqotlar o'tkazishgan. Naftilkarbon kislotalar sintezi, jumladan, uning gomologlarining xossalari va qishloq xo'jaligida qo'llanishi bo'yicha K.Vilgerodt, Y.Ogata, J.Ishiguro, Ph.Southwick, L.Pursglove, A.A.Bazunov, A.Shmuk, A.Guseva, N.N.Melnikov, Yu.A.Baskakov va boshqalar faoliyat olib borgan.

Bugungi kunda respublikamizda piroliz jarayonining ikkilamchi mahsulotlari tarkibini o'rganish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha A.T.Djalilov, S.E.Nurmonov, S.A.Gaybullayev, O.Sh.Qodirov, X.Ch.Mirzaqulov, A.Q.Kenjayeov va boshqalarning ilmiy faoliyati piroliz jarayoni ikkilamchi mahsulotlari tarkibini o'rganishga qaratilgan.

Naftilkarbon kislotalar sintezi, jumladan, uning gomologlarining xossalari va qishloq xo'jaligida qo'llanishi, ishlab chiqarishdagi texnologik parametrlarini tadqiq qilish nazariy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Organik sintezlar o'tkazish va biologik faol moddalar olish" (2022-2023 yy.) mavzusidagi tadqiqotlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** piroliz moyi tarkibidan naftalin birikmalarini ajratib olishning maqbul usulini, naftalin asosida naftilsirka kislotasi sintezi jarayonlarini, hamda mahsulot unumini oshiruvchi omillarni aniqlash hamda naftilsirka kislotasi ishlab chiqarishning takomillashtirilgan texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tabiiy gazni piroliz qilishda hosil bo'ladigan piroliz moyi tarkibidan naftalin birikmalarini ajratib olishning samarali usullarini ishlab chiqish;

naftalin va xlorisirka kislotasi asosida boradigan kondensatlanish reaksiyalarini tadqiq qilish va naftilsirka kislotasi unumini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash orqali jarayon borish sharoitini optimallashtirish;

naftilsirka sintezi reaksiyasiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ushbu mahsulotni ishlab chiqarishning amaldagi texnologiyasini takomillashtirish;

naftilsirka kislotasini qishloq xo'jaligida qo'llash uchun barqaror eritmalar

olish va uning barqarorligini matematik qayta ishlash orqali nazariy asoslash;  
naftilsirka kislotasi asosida qishloq xo'jaligida foydalanishga mo'ljallangan preparatlar ishlab chiqarish va undan foydalanishga oid tavsifalar tuzish.

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida piroliz moyi, naftalin, monoxlorsirka kislota, kaliy bromid, natriy gidroksid va naftilsirka kislotasi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** monoxlorsirka kislotasining kaliy bromid bilan poliefirlanish reaksiyasi, poliefirlanish reaksiyasining mahsuli – xloratsetilpoliglikol kislotasining naftalin bilan kondensatlanish reaksiyasi, kondensatlanish reaksiyasiga temir kukunining katalitik ta'siri, naftilsirka kislotasi va polivinil spirti asosida barqaror eritma olish hamda ularni bog'dorchilikda biostimulyator va retardant preparat sifatida qo'llash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda poliefirlanish, kondensatlanish va sovunlanish reaksiyalari, IQ-,  $^1\text{H}$  va  $^{13}\text{C}$ -YaMR spektroskopiya, xromato-mass spektrometriya usullari, kvant-kimyoviy hisoblashlar hamda jarayonni matematik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Piroliz moyidan naftalinni ekstraksiya (fazaviy ajratish) usulida ajratib olishning texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

monoxlorsirka kislotasi va kaliy bromidning poliefirlanish mahsuloti – xloratsetilpoliglikol kislota va naftalinning kondensatlanish reaksiyasi 0,13 % temir kukuni katalizatorligida olib borilganda, mahsulot unumi yuqori bo'lishi aniqlangan;

xloratsetilpoliglikol kislota va naftalinning temir kukuni katalizatorligida kondensatlanish reaksiyasi mexanizmi kvant-kimyoviy usullar yordamida nazariy isbotlangan;

naftalin va monoxlorsirka kislotasi asosida naftilsirka kislotasi sintez qilishning ikki bosqichli texnologiyasi ishlab chiqilgan;

naftilsirka kislotasi va polivinil spirti asosida tegishli 7:1 nisbatlarda barqaror suvli eritma hosil bo'lishi matematik qayta ishlash orqali isbotlangan.

1-naftilsirka kislotasi ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“UzCorGas” MChJ QK da qo'shimcha mahsulot sifatida ishlab chiqariladigan piroliz moyi tarkibidan naftalin birikmalarini ekstraksiya usulida ajratib olishning texnologik sxemasi yaratilgan;

naftalin va monoxlorsirka kislotasi asosida 1-naftilsirka kislota sintez qilishning ikki bosqichli usuli yaratilgan;

naftilsirka kislotasi va polivinilspirtining 7:1 nisbatdagi quruq aralashmasidan qishloq xo'jaligida foydalanish uchun barqaror suvli eritma olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy tadqiqot ishlarida IQ-,  $^1\text{H}$ - va  $^{13}\text{C}$ -YaMR-spektroskopiya, xromato-mass spektrometriya, kvant kimyoviy hisoblashlar va matematik modellashtirish usullaridan foydalanilganligi hamda tajriba laboratoriya qurilmalarida va dala-tajriba sinovlaridan o'tganligi bilan tasdiqlanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati naftalin va xlorsirka kislotalarining kaliy bromid, metall katalizatorlar ishtirokida amalga oshadigan kondensatlanish reaksiyasining alohida ikki bosqichda olib borilganda mahsulot unumi yuqori bo'lishligi, ikkinchi bosqichda katalizator sifatida temir kukunining ishtirok etishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati naftilsirka kislota sintez qilishning ikki bosqichli usuli ishlab chiqilgani, alohida jarayonlar borishining maqbul sharoitlari topilganligi, sintez qilingan naftilsirka kislotasining polivinil spirti bilan qishloq xo'jaligida qo'llash uchun barqaror eritma olish uchun nisbatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Piroliz moyidan naftalin birikmalarini ajratib olish va ular asosida biologik faol moddalar sintezi texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Piroliz moyidan ajratib olingan naftalin asosida sintez qilingan naftilsirka kislotalari Namangan viloyatining Namangan tumanidagi "Shuhratbek Xurshidbek" nomli, Yangiqo'rg'on tumanidagi "Zarnigor Nurmuhammad" va "Yo'ldoshev Davlatali" nomli, Kosonsoy tumanidagi "Yangiyo'l Silver Fiber" nomli bog'dorchilik fermer xo'jaliklari bog'larida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligining 2024 yil 14 martdagi 2-8/1101-son ma'lumotnomasi). Natijada, olma mevalarining erta to'kilishi 65% gacha kamaygan, meva po'stida antotsianlarning miqdori ortgan, meva po'stlog'ining zichligi va boshqa biokimyoviy ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini bergan.

"Uz-Kor Gas Chemical" MChJ da tabiiy gazni piroliz qilish jarayonida qo'shimcha holda hosil bo'luvchi piroliz moyi va piroliz distillyati tarkibidan ajratib olingan naftalin birikmalari asosida naftilkarbon kislotalari sintez qilish texnologiyasi "Ifoda Agro Kimyo Himoya" MChJ qo'shma korxonasining "2025-2027 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan ("Ifoda Agro Kimyo Himoya" MChJ qo'shma korxonasining 2024 yil 22 yanvardagi 28-son ma'lumotnomasi). Natijada, kimyoviy ishlov berilgan daraxtlarda meva bandlari mustahkamlanib, mevalar to'kilishini bartaraf etishga imkon beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 19 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola respublika, 5 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 95 betni tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY QISMI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi keltirilgan, maqsad va vazifalar, shuningdek, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari, ob'ekti va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishiga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish ro'yxati keltirilgan, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning hajmi, tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharhi. Naftalin asosidagi o'simlik o'sishini boshqaruvchi moddalar, ularning sintezi”** deb nomlangan birinchi bobida o'simlik o'sishini boshqaruvchi moddalar, ularning turlari va qishloq xo'jaligida qo'llanishi, piroliz moyining turlari, ularning tarkibini o'rganish va ajratish usullari, naftalin birikmalarining xossalari va uning hosilalarini sintez qilish usullari, naftilsirka kislota sintezi qilish usullari va reaksiya unumiga oid adabiyot ma'lumotlari tahlil qilingan. Shuningdek, piroliz moyi tarkibidan naftalin birikmalarini ajratib olish, tozalash va naftilsirka kislotasi sinteziga oid ilmiy ma'lumotlar sharhlangan. To'plangan ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari aniqlangan.

Jumladan, 1-naftilsirka kislotasi sintez qilishda metall kukunlarining, shuningdek ularning aralashmalarini turli qo'shimchalar bilan birgalikdagi katalizatorlik ta'sirining maqbul sharoitlarini aniqlash uchun o'tkazilgan solishtirma tajribalar ham o'rganib chiqilgan.

Adabiyotlarda keltirilishicha, metall kukunlarining katalizatorlik ta'siri bo'yicha kukunsimon rux qo'llanilganda eng yaxshi natijaga erishilgan. Bu holda monoxlorsirka kislotasiga nisbatan unum 14% bo'lib, temir kukuni katalizatorligida bu 10% dan oshmagan. Temir kukuni va kaliy bromid ishtirokida 1-naftilsirka kislotasining unumi 68-70% gacha yetgani holda rux kukuniga kaliy bromid qo'shilganda unum unchalik o'zgarmagan. Kaliy yodid va kaliy ftorid kabi boshqa tuzlar ham naftalinning monoxlorsirka kislotasi bilan reaksiyasi unumiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. Naftilsirka kislotasi sintezi uchun temir kukunining katalitik ta'siri chuqur tadqiq etilmagan.

Ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqib, tabiiy gazni piroliz qilish natijasida hosil bo'ladigan piroliz moyining tarkibi, undan uglevodorodlarni ajratib olish, tozalash va tahlil qilishning murakkab ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun piroliz moyi tarkibidan naftalin birikmalarini ajratib olish va tozalashning kompleks usullaridan foydalanish va naftalindan 1-naftilsirka kislotasi ishlab chiqarishda foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi xulosa qilindi. Ma'lumki, mamlakatimizda 1-naftilsirka kislotasi ishlab chiqarilmaydi, balki import qilib keltiriladi. Shuning uchun 1-naftilsirka kislotasi sintezi jarayonlarini amalga oshirish, uning mavjud texnologiyasini takomillashtirish, sintez jarayonining optimal sharoitlarini topish dolzarb vazifa ekanligi ta'kidlangan.

Dissertatsiya ishining **“Boshlang'ich moddalar, ularni ajratish va sintez qilingan moddalar tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot uchun

qo'llanilgan xomashyolar, kimyoviy birikmalar, yordamchi reaktiv va reagentlarning tavsifi, ularning fizikaviy va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari, muvofiqlashtiruvchi me'yoriy hujjatlari va ularga qo'yiladigan talablar haqida bayon etildi. Shuningdek, tajribalarni o'tkazish metodikalari, xususan, asosiy xomashyo sanaluvchi piroliz moyidan naftalinni ajratib olish va tozalash tartibi, ajratib olingan naftalindan 1-naftilsirka kislotasini metall katalizator ishtirokida sintez qilish tartibi keltirildi.

1-naftilsirka kislotasini metall katalizator ishtirokida sintez qilish. Kolbaga 307 g naftalin, 75 g monoxlorsirka kislotasi, 0,4 g temir kukuni va 2 g kaliy bromid solinadi. Uni moy hammomiga joylashtirib, teskari sovutgich o'rnatiladi. Kolbaning ichidagi harorat asta-sekinlik bilan 180 °C gacha ko'tariladi va keyin 220 °C ga yetguncha har soatda 2 °C dan qizdirib boriladi. Ajralib chiqayotgan vodorod xlorid sovutgich orqali o'tkazilib, suvli "qopqonda" tutib qolinadi. Reaksiya harorati 180 °C ga ko'tarilgandan boshlab, 20 soat davom ettiriladi. Reaksiya yakunlangach, reaksiyon aralashma 110 °C gacha sovutiladi va 80-85 °C gacha isitilgan 1,4 litr 2% li natriy gidroksid eritmasiga aralashtirib turgan holda quyiladi. Ekstraksiya jarayoni 1 soat davomida qizdirib va aralashtirib turgan holda olib boriladi. Keyin reaksiyon aralashma xona haroratigacha sovutiladi. Sovutish vaqtida naftalin bo'laklar hosil qilib qolmasligi uchun aralashtirib turilishi kerak. Sovugan reaksiyon aralashmadan naftalinni filtrlab ajratiladi va u 50 ml suv bilan yuviladi. Olingan filtrat (suyuqlik) xlorid kislotaga yordamida indikator ishtirokida neytrallanadi va unga 10% li kalsiy xlorid eritmasidan 50 ml (yoki shaffof och sarg'imgir eritma hosil bo'lguncha) qo'shiladi. Ajralib chiqqan cho'kma filtrlab ajratib tashlanadi va filtratdan 1-naftilsirka kislotasi xlorid kislotaga qo'shish yordamida ajratib olinadi. Buning uchun 27% li xlorid kislotaga eritmasidan taxminan 110 g sarflanadi. Cho'kmaga aylangan 1-naftilsirka kislotasi filtrlab olinib, uni 30 ml suv bilan yuviladi va 80 °C haroratda quritiladi. Natijada 101,2 g 1-naftilsirka kislotasi olinadi. Mahsulot unumi monoxlorsirka kislotasiga nisbatan hisoblaganda, 68,5% ni tashkil qiladi. Reaksiyaga kirishmay qolgan ortiqcha naftalin ham quritiladi va haydab tozalanadi. Uning miqdori 196,2 grammgacha bo'ladi. Olingan 1-naftilsirka kislotasining suyuqlanish harorati 135 °C, lekin mahsulot tarkibida 5-8% gacha 1,5-naftilendisirka kislotaga ham bo'lishi hisobiga 116-120 °C da suyuqlanadi.

Bundan tashqari ushbu bobda 1-naftilsirka kislotasini qishloq xo'jaligida qo'llashga oid dala tajribalarini o'tkazish metodikasi, tadqiqot ob'ektlarini aniqlashga doir tahlil usullari yoritildi. Sintez qilingan 1-naftilsirka kislotasini aniqlash, 1-naftilsirka kislotasining meva tarkibidagi qoldiq miqdorini aniqlash va shu modda bilan ishlov berilgan meva tarkibidagi hosil bo'lgan antotsian pigmentlarni aniqlash usullari shular jumlasidandir.

Ishning 3-bobi "**Olingan natijalar va ularning tahlili**" deb nomlanadi va unda naftilkarbon kislotalar sintezi reaksiyasi mexanizmini kvant-kimyoviy usulda tadqiq etish; naftilkarbon kislotalar asosida barqaror eritmalar olish; naftilsirka kislotasi asosida barqaror eritma olish texnologiyasining matematik modeli va tahlili, naftalin asosida naftilkarbon kislotalari ishlab chiqarish texnologiyasi va sxemasi, naftilkarbon kislotalarini bog'dorchilikda qo'llash, naftilkarbon kislotalari ishlab chiqarish va foydalanishda iqtisodiy samaradorlik, naftilkarbon kislotalari ishlab

chiqarish va foydalanishda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga doir ma'lumotlar berilgan.

Jumladan, o'xshash tuzilishli xlorasetilpoliglikol va xlorsirka kislota molekulari va ionlarining umumiy energiyasi va molekulyar orbitallar energiyalari AM1 va RM3 yarim empirik usullarida hisoblandi. Quyidagi 1-jadvalda xlorasetilpoliglikol va xlorsirka kislota molekularining vertikal va adiabatik ionlanish potentsiallari keltirilgan.

1-jadval

Xlorasetilpoliglikol va xlorsirka kislota molekularining vertikal va adiabatik ionlanish potentsiallari

Hisoblash usuli	Molekula	IP <sub>vert</sub> , eV	IP <sub>adiab</sub> , eV
AM1	Xlorasetilpoliglikol kislota	-22,83	13,14
RM3		-98,51	13,23
DFT/BLYP/631G		-16,68	11,42
AM1	Xlorsirka kislota	-7,67	8,98
RM3		-7,44	10,42
DFT/BLYP/631G		-3,35	10,38

Shuningdek, ushbu moddalar molekularining elektronga moyillik qiymatini 3 va 4 tenglamalarga muvofiq hisoblandi (2-jadval).

2-jadval

Xlorasetilpoliglikol va xlorsirka kislota molekularining elektronga moyillik qiymati

Molekula	Hisoblash usullari	Ye <sub>QBMO</sub>	EM <sub>vert</sub> , eV	EM <sub>adiab</sub> , eV
			3 tenglama	4-tenglama
Xlorasetilpoliglikol kislota	AM1	3,37	-3,37	0,47
	RM3	3,14	-3,14	0,13
	DFT/BLYP/631G	1,90	-1,90	16,92
Xlorsirka kislota	AM1	0,38	-0,38	-2,06
	RM3	0,27	-0,27	-1,77
	DFT/BLYP/631G	0,15	-0,15	15,79

2-Jadvaldan ko'rinadiki, yarim empirik usulda bajarilgan hisoblash natijalari bo'yicha Ye<sub>YUBMO</sub> qiymati noldan yuqori va bu sistemaning elektronga moyilligini aniqlashga yetarlicha imkon bermaydi. Aniq natija olish uchun noempirik usulda hisoblashlarni davom ettirish kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xlorasetilpoliglikol va xlorsirka kislota molekulari uchun ionlanish potentsiali qiymatlari yuqori bog'lovchi molekulyar orbitallar energiyalaridan kelib chiqib, yarim empirik va noempirik usullarda aniqlandi. Elektronga moyillik qiymati esa quyi bo'shashtiruvchi molekulyar orbitallar energiyasiga ko'ra yarim empirik usullarda qanoatlanarli natija bermadi. Umumiy qilib aytganda, kvant-kimyoviy usullar yordamida ionlanish potentsiali qiymatini aniqlash elektronga moyillik qiymatini aniqlashga nisbatan ishonchliroq hisoblanadi.

1-Naftilsirka kislotasining suvda eruvchanligi yuqori emasligini hisobga olgan holda uning barqaror suvli eritmasini tayyorlash uchun sirt faol moddalardan foydalanish zarur. Ishlab chiqarishda ko‘pincha bu maqsadda dimetilsulfoksid, etil spirti yoki boshqa moddalardan foydalaniladi. Bu moddalar kam miqdorda qo‘llanilganda, o‘simliklar uchun foydali ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, dimetilsulfoksid kuchli issiq va quruq ob-havoda antistress ta‘sirga ega, kam miqdordagi etil spirti esa fungitsidlik xossasiga ega.

Naftilsirka kislotasi asosida ishchi eritmalar tayyorlash uchun mo‘ljallangan aralashma tarkibiga ham uning suvda eruvchanligini yaxshilovchi, eritmaning barqaror holda bo‘lishini ta‘minlovchi va o‘simlik organlariga yopishishini ta‘minlovchi qo‘shimchalar kiritish lozim. Ushbu eritmalarini tayyorlash uchun 1 litr suvga avval tortib olingan PVS kukunini aralashtirib turgan holda solib, eritib olinadi va unga 1 gramm NSK kukunini eritmani aralashtirib turgan holda asta-sekinlik bilan solib, eritiladi. Olingan eritmaning holati vizual baholanadi va 15-25 °C harorat oralig‘ida 30 kungacha saqlanadi. Qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun ishchi eritmalar tayyorlashda ishlatiladigan namlanuvchi kukun tarkibining maqbul nisbatlarini aniqlash uchun polivinil spirti (PVS) va 1-NSK ning turli nisbatlardagi aralashmalaridan iborat eritmalar tayyorlandi (3-jadval):

3-jadval.

PVS va 1-NSK eritmasining nisbatlari va barqarorligi (1 litr eritma)

	PVS massasi, g	1- NAK, 1 g	Eritmaning tavsifi			
			1-kun	10-kun	20-kun	25- kun
1	2	1	Shaffof, ostida cho‘kma bor	-	-	-
2	4	1	Shaffof, ostida cho‘kma bor	-	-	-
3	5	1	Shaffof, cho‘kma yo‘q	Ostiga biroz cho‘kma tushgan	O‘zgarmagan	O‘zgarmagan
4	6	1	Shaffof, cho‘kma yo‘q	O‘zgarmagan	O‘zgarmagan	Biroz xiralashgan, cho‘kma yo‘q
5	8	1	Shaffof, cho‘kma yo‘q	O‘zgarmagan	O‘zgarmagan	Biroz xiralashgan, cho‘kma yo‘q
6	10	1	Shaffof, qovushqoq, cho‘kma yo‘q	Qovushqoqligi kamaygan, cho‘kma yo‘q	O‘zgarmagan	O‘zgarmagan

Yuqoridagi 3-jadvaldan ko‘rinadiki, PVS va NSK ning tegishli 6:1 va 8:1 nisbatli 1 litrli eritmalarida eritmaning shaffof holati 25 kungacha saqlanib qolganligi kuzatilmoqda. 5:1 nisbatli eritmada vaqt o‘tishi bilan NSK ning cho‘kmaga tushishi, 10:1 nisbatli eritmaning avval qovushqoq holda bo‘lib, keyinchalik qovushqoqligi kamayishi ma’lum bo‘ldi. Bu holatlarni eritmadagi polivinil spirti makromolekulalarining o‘zaro fluktuatsion chigallashgan to‘r hosil qilishi bilan tushuntirish mumkin.

Ushbu tajribadan kelib chiqqan holda 1-naftilsirka kislotasi asosida ishchi eritmalar tayyorlash uchun kukun holdagi polivinil spirti va 1-naftilsirka kislotasidan 6:1 (yoki 7:1) nisbatlarda aralashtirib, namlanuvchi kukun shaklida qadoqlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Qadoqlangan namlanuvchi kukunlardan ishchi eritma tayyorlash uchun undan “ona eritma” tayyorlab olish tavsiya etiladi. Chunki quyi konsentratsiyali (0,001-0,002%) ishchi eritmalarning barqarorligi kam bo‘lib, uni 1 kun davomida ishlatib yuborish zarur. “Ona eritma”ni esa 2-3 haftagacha saqlash va keyinchalik uni suyultirib foydalanish mumkin.

“Ona eritma” 7-8 gramm namlanuvchi kukunga 1 litr hisobida suv o‘lchab olinib, kukun suvni chayqatib (aralashtirib) turgan holda oz-ozdan solib, eritib tayyorlanadi. Bu “ona eritma”ni 5-10 barobargacha suyultirib, ishchi eritma olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi mo‘tadil iqlim sharoitida qishloq xo‘jaligi ekinlari va daraxtlar parvarishida, o‘simliklarga zarar yetkazmaydigan, o‘simlik urug‘larning unib chiqishi hamda qalamchalarning ildiz olishiga yordam beradigan, mevalarining erta to‘kilishini oldini oluvchi kimyoviy eritmalar asosida naftilsirka kislotasi yoki alfa-naftilsirka kislotalardan tayyorlanadigan eritma tayyorlashda miqdoriy o‘lchov katta ahamiyatga ega. Shuning uchun preparatlarni tayyorlashda matematik modellarga asoslanish zarur ahamiyat aks etadi. Ko‘p amaliy holatlarda, kimyoviy eritmalarning bog‘liqlikni chiziqli tenglamalar yordamida modellashtirish juda qoniqarli natija beradi, shuningdek tahlil qilish va bashorat qilish uchun ishlatilishi mumkin.


1-naftilsirka kislota eritmasi barqarorligining matematik modelini tajribada olingan quyidagi jadvaldagi ma’lumotlarga asosan hisoblab aniqlanadi. Hisob-kitob ishlari va yechimlarni Matchad, Excel dasturiy ta’minotlar yordamida bajarib aniqlanadi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

1-naftilsirka kislota hamda alfa-naftilsirka kislota eritmasi.

№	Vaqt birligi (kun)	Umumiy miqdor birligi	PVS (gramm)	1-NSK (gramm)	Suv (litr)
1	1	4	2	0,9	800
2	5	6	4	0,9	800
3	10	7	5	0,9	800
4	15	8	6	0,9	800
5	20	10	8	0,9	800
6	25	12	10	0,9	800

Yuqoridagi jadvaldan foydalanib, 1-naftilsirka kislota umumiy eritmasi grafigi tasvirlanadi.



1-rasm. 1-NSK kislota hamda PVS kislotalarning suyuqlikdagi umumiy eritmasi grafigi.

1-Rasmdagi grafikdan kimyoviy moddalar eritmasidagi cho‘kmalar dastlabki kunda sezilarli emasligi ko‘rinadi. Lekin saqlanish jarayonidagi kuzatishlarga ko‘ra 2-4-kunlari eritmada cho‘kmalar kuzatilmoqda. Xuddi shuningdek, keyingi kunlar davomida cho‘kmalar mavjud bo‘lsada, ammo yetarlicha sezilarli emas. To‘liq barqaror eritma 121.36 % shaffof holda bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Umumiy eritma to‘liq holda saqlanish muddatiga qarab, o‘zining shaffofligi va barqarorligini saqlaydi.


Dissertatsiya ishida 1-naftilsirka kislotasi ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashtirilgan bo‘lib, uning asosiy sintez jarayonlari ikki bosqichda: A va B reaktorlarda amalga oshadi (2-rasm).

Texnologik jarayonning tavsifi. A-reaktorda xloratsetilpoliglikol kislotasi sintez qilinadi. Ushbu reaktor avtomatik harorat nazorati va aralashtirgich bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak. Unga dozator orqali xlorsirka kislotasi va kaliy bromid aralashmasi kiritiladi. Jarayon vaqtida hosil bo‘ladigan bug‘ kondensator qurilmasidan o‘tkazilib, undan vodorod xloridi ajratib chiqariladi. Kondensatlangan xlorsirka kislotasi esa qayta A-reaktorga uzatiladi. Kondensator qurilmasidagi bug‘ harorati 240 °S ga yetganda, A-reaktordagi reaksiyon aralashma yuvish idishiga o‘tkaziladi va u yerda sovutilib, suv bilan yuviladi.


Suvda yuvilgan xloratsetilpoliglikol kislotasi va naftalin maydalagich-tegirmon orqali B-reaktorga beriladi. Ushbu aralashma B-reaktorda 220 °C da 24 soatgacha qizdiriladi. So‘ngra reaksiyon aralashma ekstraktorga yuboriladi. Ekstraktorda reaksiyon aralashma natriy gidroksid bilan ekstraksiya qilinadi. Keyin nutch-filtr, vakuum idishi va ekstrakt uchun o‘lchov idishlari orqali neytralizatorga kelib tushadi. Neytralizatorda xlorid kislotasi eritmasi bilan neytrallangan yarim mahsulot tindirgichdan o‘tkazilib, ortiqcha naftalin, neytrallashtirishdan hosil bo‘lgan tuzlar va boshqalardan tozalanib, yig‘gich idishga beriladi. Yig‘gich idishdan so‘ng mahsulotga 15% li natriy atsetat bilan ishlov beriladi va hosil bo‘lgan cho‘kmalar

keyingi bosqichlarda sentrifuga orqali ajratib olinadi. Keyin esa mahsulot qaytadan xlorid kislota eritmasi bilan ta'sirlashtiriladi va vakuum-filtrdan o'tkazilib, qaynoq benzol bilan ekstraksiya qilinadi. Bunda mahsulot tarkibidagi naftilen-1,5-diatsetat benzolda erimaydi va filtrda tutib qolinadi. Benzolli ekstraktdan haydash usuli orqali benzol haydab yuboriladi va mahsulot suv bilan qayta kristallanib, sentrifuga va nutch-filtrlar orqali tozalanib, toza holdagi mahsulot – 1-naftilsirka kislota qadoq idishiga solinadi.

1-Naftilsirka kislotasi olishning texnologik sxemasi 2-rasmda keltirilgan.



- a) texnologik sxemaning umumiy ko`rinishi: 1 – reaktor; 2 – reaktor-ekstraktor; 3, 19 – NaOH eritmasi uchun o'lchov idishi; 4 – nutch-filtr; 5 – vakuum idishi; 6 – neytralizator; 7 – tindirgich; 8 – vakuum-filtr; 9 – suvni yig'ish uchun vakuum idishi; 10 – tsentrifuga; 11 – mahsulot uchun idish; 12 – sovtgich; 13 – HCl uchun o'lchov idishi; 14 – yig'gich idish; 15 – qatron uchun yig'gich idish; 16 – tuzli eritmalar uchun yig'gich idish; 17 – ekstrakt uchun o'lchov idishi; 18 – ekstrakt tindirgichi; 20 – vakuumli yig'gich; 21 – termometr; K\* - katalizator.



b) texnologik sxemaga o`zgartirish kiritilgan qismi.

2-rasm. 1-Naftilsirka kislotasi ishlab chiqarishning texnologik sxemasi.

Dissertatsiyaning “**Naftilkarbon kislotalarini bog‘dorchilikda qo‘llash**” deb nomlangan 3.5-paragrafida naftilsirka kislotasi asosida tayyorlangan ishchi eritmaning bog‘dorchilikda qo‘llanilishi bayon etilgan.

1-naftilsirka kislotasi yoki alfa-naftilsirka kislotasi qishloq xo‘jaligi ekinlari va daraxtlar parvarishida keng qo‘llaniladi. Ushbu birikma asosida tayyorlanadigan preparatlar urug‘larning unib chiqishi va qalamchalarning ildiz olishiga yordam beradi hamda olma va nok mevalarining erta to‘kilishini oldini oladi. O‘ta ko‘p miqdorda qo‘llash esa aksincha ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun uni o‘ta suyultirilgan eritmaları qo‘llaniladi. Naftilsirka kislotalarning boshqa gomologik birikmalari ham bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida asosiy mahsulot – 1-naftilsirka kislota bilan kam miqdorda aralashgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun mazkur birikmalarning fiziologik faolligi haqida 5-jadvalda to‘xtalib o‘tamiz.

5-jadval.

Naftilalkilkarbon kislotalarining fiziologik faolligi

No	Birikmaning nomi	Faolligi*, %
1	$\alpha$ -Naftilsirka kislotaning 3-metilbuten-2-il-1-on efiri	120
2	2-Metilnaftil-1-sirka kislota	103
3	<b><math>\alpha</math>-Naftilsirka kislota</b>	<b>100</b>
4	$\alpha$ -Naftilsirka kislotasining metil efiri	100
5	2-Metilnaftil-1-atsetamid	95

6	$\alpha$ -Naftilatsetamid	90
7	3, 4-Digidronaftil-1-sirka kislota	83
8	$\alpha$ -Naftilatsetonitril	67
9	1,2,3,4-Tetragidronaftil-1-sirka kislota	67
10	$\alpha$ -(1-Naftil)-moy kislota	67
11	$\alpha$ -Naftil-1-propion kislota	50
12	$\alpha$ -Naftilsirka kislotasining etil efiri	50
13	$\beta$ -Naftilsirka kislota	33
14	$\alpha$ -(1-Naftil)-n-kapron kislota	17
15	$\alpha$ -(1-Naftil)-n-valerian kislota	Faolligi kam
16	$\alpha$ -(1-Naftil)-n-geptil kislota	Faolligi kam

*\*1-naftilsirka kislotasining faolligi shartli ravishda 100 ga teng deb olingan.*

Yuqoridagi -jadvaldan ko‘rinadiki, naftalinning  $\alpha$ -holatda funksional guruh tutgan birikmalari yuqori fiziologik faollikka ega bo‘lib,  $\beta$ -naftilalkilkarbon kislotalarning faolligi ancha kam ekan. Fiziologik faollik darajasi  $\alpha$ -naftilsirka kislota va uning amidli, nitrilli hosilalari hamda ba’zi efirlarida kuzatiladi.

Tajriba-sinov ishlari Namangan viloyati Chortoq tumanidagi “Bahromjon, Solijon, Nodirjon”, Uchqo‘rg‘on tumanidagi “Hojimuhammad Ibrat” va “Qayqi hamkor servis” bog‘dorchilik fermer xo‘jaliklariga qarashli olmozor bog‘larda amalga oshirildi.

Tajriba davomida mevalarning erta to‘kilishini nazorat qilish va biokimyoviy tahlillar olib borildi. Shuningdek, meva po‘stlog‘ida antotsianlarning mavjudligi, olmaning vitamin tarkibi va meva po‘stlog‘i zichligining o‘zgarishlari aniqlandi. Mevalarni muzlatgichda saqlash davomida ularning to‘liq biokimyoviy va tovar tahlillari o‘tkazildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Aleksandr Boyko navi – daraxtlarga ishlov berish hosilni yig‘ib olishdan kamida 1 hafta oldin, ikki va uch martadan (oraliq vaqt – 5 kun) amalga oshirildi.

- Turli konsentratsiyali ishchi eritmalardan 0.5% li ishchi eritma bilan ikki marta ishlov berilgan daraxtlarda ijobiy fenologik o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, meva po‘stida rang beruvchi moddalar – antotsianlarning miqdori ko‘paygani, yetilgan mevalar po‘stlog‘ining zich ekanligi, saqlash davomida vitaminlar miqdorining nazoratga nisbatan yuqori bo‘lishi (nazoratda – 53-55%, tajribada – 70-75%) va meva po‘stlog‘ining zichligi ham nazoratga nisbatan 20% gacha zich saqlangani aniqlandi;

- Meva hosilining to‘kilishi nazoratga nisbatan 30-35% gacha kamaydi.

Golden Delishes – daraxtlarga ishlov berish hosilni yig‘ib olishdan kamida 1 hafta oldin, ikki va uch martadan (oraliq vaqt – 5 kun) amalga oshirildi.

- Turli konsentratsiyali ishchi eritmalardan 0.5% li ishchi eritma bilan ikki marta ishlov berilgan daraxtlarda ijobiy fenologik o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, meva po‘stida rang beruvchi moddalar – antotsianlarning miqdori ko‘paygani, yetilgan mevalar po‘stlog‘ining zich ekanligi, saqlash davomida vitaminlar

miqdorining nazoratga nisbatan yuqori bo'lishi (nazoratda – 53-55%, tajribada – 70-75%) va meva po'stlog'ining zichligi ham nazoratga nisbatan 20% gacha zich saqlangani aniqlandi;

- Meva hosilining to'kilishi nazoratga nisbatan 45-50% gacha kamaydi.

Jonatan – daraxtlarga ishlov berish hosilni yig'ib olishdan kamida 1 hafta oldin, ikki va uch martadan (oraliq vaqt – 5 kun) amalga oshirildi.

- Turli konsentratsiyali ishchi eritmalardan 0.5% li ishchi eritma bilan ikki marta ishlov berilgan daraxtlarda ijobiy fenologik o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, meva po'stida rang beruvchi moddalar – antotsianlarning miqdori ko'paygani, saqlash davomida vitaminlar miqdorining nazoratga nisbatan yuqori bo'lishi (nazoratda – 35%, tajribada – 65-70%) va meva po'stlog'ining zichligi ham nazoratga nisbatan 12% gacha zich saqlangani aniqlandi;

- Meva hosilining to'kilishi nazoratga nisbatan 60-65% gacha kamaydi.

Red Delishes (Beshyulduz) – daraxtlarga ishlov berish hosilni yig'ib olishdan kamida 1 hafta oldin, ikki va uch martadan (oraliq vaqt – 3 kun) amalga oshirildi.

- Turli konsentratsiyali ishchi eritmalardan 0.5% li ishchi eritma bilan ikki marta ishlov berilgan daraxtlarda ijobiy fenologik o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, 0.5% li ishchi eritma bilan ikkinchi marta ishlov berilgandayoq meva po'stida rang beruvchi moddalarning miqdori ko'paygani aniqlandi;

- Meva hosilining to'kilishi nazoratga nisbatan 40% gacha kamaydi.

Renet Simirenko – daraxtlarga ishlov berish hosilni yig'ib olishdan kamida 1 hafta oldin, ikki va uch martadan (oraliq vaqt – 5 kun) amalga oshirildi.

- Turli konsentratsiyali ishchi eritmalardan 0.5% li ishchi eritma bilan ikki marta ishlov berilgan daraxtlarda ijobiy fenologik o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, meva po'stlog'ining zichligi nazoratga nisbatan 8% gacha zich saqlangani aniqlandi;

- Meva hosilining to'kilishi nazoratga nisbatan 58% gacha kamaydi.

O'tkazilgan tajribalardan xulosa qilish mumkinki, dala sharoitida 0,05%, 0,5%, 1,0%, 1,5% konsentratsiyali ishchi eritmalar qo'llanilgan bo'lib, ulardan asosan 0.5% konsentratsiyali ishchi eritma bilan 3-5 kun oraliqda 2 marta ishlov berishda eng yaxshi natijalar qayd etildi. Ya'ni nazoratga nisbatan mevalarning erta to'kilishi 30-65% gacha kamaydi, meva po'stida antotsianlarning miqdori ortdi, meva po'stlog'ining zichligi va boshqa biokimyoviy ko'rsatkichlari yaxshilandi. Asosan, kimyoviy ishlov berilgan daraxtlarda meva bandlari mustahkamlanib, mevalar to'kilishini bartaraf etishga erishildi.

Bundan tashqari turli olma navlarining meva po'stida rang beruvchi moddalar – antotsianlarning miqdori ko'paygani, yetilgan mevalar po'stlog'ining zich ekanligi, saqlash davomida vitaminlar miqdorining nazoratga nisbatan 40% gacha yuqori bo'lishi (nazoratda – 35-55%, tajribada – 70-75%) va meva po'stlog'ining zichligi ham nazoratga nisbatan 8-20% gacha zich saqlangani aniqlandi, meva hosilining to'kilishi nazoratga nisbatan 30-65% gacha kamaydi.

1-Naftilsirka kislotasi ishlab chiqarishni mahalliyashtirish orqali import o'rnini bosuvchi mahsulotning olinishi iqtisodiy nuqtai nazardan ahamiyatlidir. Undan tashqari, mahsulotning tannarxi ham arzon bo'lishi kutilmoqda.

Piroliz moyidan olingan naftalin asosida 1-naftilsirka kislotasi sintez qilishning qiymati 6-jadvalda keltirilgan.

Naftalin asosida ishlab chiqarilgan 1-naftilsirka kislotaning tannarxi  
(100 kg mahsulot uchun, reaksiya unumi – 68,5%)

№	Xomashyo	Tovar birlik narxi, kg	Kerakli miqdori, kg	Narxi
	Naftalin	425 000	23,67	10 059 753,28
	Monoxlorsirka kislotasi	68 000	57,83	3932151,12
	Kaliy bromid	457 000	15,42	7047031,61
	Temir kukuni	191 000	3,08	589051,66
	Jami:		100	21 627 987,66
	Ishlab chiqarish xarajatlari, 25%			5 406 997
	Tayyor mahsulotning narxi, so`m			27 034 984,58

Ushbu jadvaldan ko`rinadiki, 1 kilogramm 1-naftilsirka kislotasining tannarxi taxminan 270350 so`mni tashkil etmoqda. Ushbu moddaning amaldagi o`rtacha ulgurji narxi 850-900 ming so`m ekanligini hisobga olinsa, ishlab chiqarilishi mahalliyashtirilgan mahsulotning narxi qariyb 3,3 barobar arzon bo`lishi mumkin.

Ishning 3.7-paragrafida naftilkarbon kislotalari ishlab chiqarish va foydalanishda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga oid chora-tadbirlar bayon etildi. Jumladan, mahsulotning asosiy ta`sir etuvchisi hisoblangan – 1-naftilsirka kislotasining xavfsizlik darajasi va undan foydalanishdagi ehtiyot choralari o`yda ma`lumotlar berildi. Bu preparat odatda kislotasi shaklida ishlab chiqariladi. Qishloq xo`jaligida foydalanish uchun ko`pincha suvda eruvchanligi yaxshi bo`lgan kaliyli tuz ko`rinishida, aerozol yoki suyuq konsentratlar shaklida chiqariladi.

Toksikligi: kalamushlar uchun LD<sub>50</sub> ko`rsatkichi – 1000-5900 mg/kg. Quyondalarda o`tkazilgan tajribalar preparat ularning terisini kuchsiz zararlashini ko`rsatgan.

Xavfsizlik choralari: kuchsiz pestitsidlar sifatida amal qilinadi. G`arbiy Yevropa davlatlarida ruxsat etilgan chegaraviy me`yori: 0,1-1 mg/kg.

Asalari va boshqa foydali hashoratlar uchun amalda zaharli ta`siri yo`q, baliqlar uchun kuchsiz ta`sirga ega.

1-Naftilsirka kislotasi issiqqonli jonivorlar va insonlar uchun amalda zaharli ta`sirga ega emas. U ozuqa mahsulotlariga aralashgan holda itlar organizmiga tushganda, 1-naftilatsetilglikokol ko`rinishida siydik bilan tanadan ajralib chiqishi aniqlangan.

Shuningdek, mehnatni muhofaza qilishga oid huquqiy hujjatlar, ularning ishlab chiqarish jarayonida amal qilishi va mehnat munosabatlarini tartibga solishdagi o`rni haqida bayon etildi.

## XULOSA

Ushbu dissertatsiya ishida quyidagi natijalar olinib, xulosalar qilindi:

1. “UzCorGas” MChJ QK da qo‘shimcha mahsulot sifatida ishlab chiqariladigan piroliz moyi tarkibidan naftalin birikmalari ekstraksion haydash usulida yuqori unum bilan ajratib olindi.

2. Monoxlorsirka kislota va kaliy bromidning poliefirlanish mahsuloti – xloratsetilpoliglikol kislota va naftalinning kondensatlanish reaksiyasi 0,13 % temir kukuni katalizatorligida olib borilganda, mahsulot unumi yuqori bo‘lishi aniqlandi.

3. Xloratsetilpoliglikol kislota va naftalinning temir kukuni katalizatorligida kondensatlanish reaksiyasi mexanizmi kvant-kimyoviy usullar yordamida nazariy isbotlandi.

4. 1-Naftilsirka kislota ishlab chiqarishning mavjud bir bosqichli texnologiyasi takomillashtirilib, samaradorligi yuqori bo‘lgan ikki bosqichli texnologiyasi ishlab chiqildi.

5. 1-Naftilsirka kislota va polivinil spirti asosida tegishli 7:1 nisbatlarda barqaror suvli eritma hosil bo‘lishi matematik qayta ishlash orqali isbotlandi.

6. 1-Naftilsirka kislota va polivinil spirti asosida tayyorlangan ishchi eritmalar bog‘dorchilik fermer xo‘jaliklarida olma mevalarining erta to‘kilishiga qarshi vosita sifatida qo‘llanildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
НАУЧНОЙ СТЕПЕНИ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
DSC.03/29.08.2023.К/Т.66.02 ПРИ НАМАНГАНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-  
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**КАХАРОВА МУХАРРАМ АБДУКАДИРОВНА**

**ВЫДЕЛЕНИЕ НАФТАЛИНОВЫХ СОЕДИНЕНИЙ ИЗ  
ПИРОЛИЗНОГО МАСЛА И ТЕХНОЛОГИЯ СИНТЕЗА  
БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ НА ИХ ОСНОВЕ**

**02.00.14 - Технология органических веществ и материалы на их основе**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.3.PhD/T4840.**

Диссертационная работа выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте  
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.nammti.uz](http://www.nammti.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Бахронов Хаёт Нуорович**  
доктор химических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Тожиев Панжи Жовлиевич**  
доктор технических наук, доцент

**Мирхамитова Дилором Худайбердиевна**  
доктор химических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ферганский политехнический институт**

Защита диссертации состоится «27» декабрь 2024 года в «14:00» часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 при Наманганском инженерно-технологическом институте по адресу: 160115, г. Наманган, ул. Косонсой, 7, Тел: (+99869) 228-76-75; факс: (+99869) 228-76-71; e-mail: [niei\\_info@edu.uz](mailto:niei_info@edu.uz).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института под регистрационным № 333 (160115, г. Наманган, ул. Косонсой, 7). Тел: (+99869) 228-76-75; факс: (+99869) 228-76-71.

Автореферат диссертации разослан «14» декабрь 2024 года.  
(Реестр протокола рассылки за № 2 от «14» декабрь 2024 года).

**Эргашев О.К.**

Председатель разового научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.х.н., профессор

**Шеркузиев Д.Ш.**

Учёный секретарь разового научного совета по  
присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

**Кадирханов Ж.М.**

Председатель научного семинара  
при разовом научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.т.н., доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Сегодня в мировой практике для обезвреживания и переработки промышленных отходов, содержащих органические соединения, применяются термические, химические, биологические, физико-химические методы и их комбинированные методы. В связи с этим она направлена на исследование проблем переработки отходов в мире и создание комплекса технологических процессов, позволяющих перерабатывать сложные органические отходы без нескольких стадий, таких как предварительная сортировка, сушка, механическая обработка (измельчение, фракционирование), брикетирование и т. д.) важно ускорить работу.

В мировом масштабе ароматические углеводороды являются одним из важных продуктов нефтехимии. Проводятся научные исследования, основными направлениями которой являются добыча природных ресурсов, их рациональное использование, масштабная модернизация промышленного производства, внедрение в практику созданных научных инновации, в том числе в сельском хозяйстве. В связи с этим особое внимание уделяется техническому и технологическому обновлению существующих промышленных объектов, быстрому внедрению современных научных достижений и передовых инновационных технологий, созданию конкурентоспособных предприятий по производству импортозамещающих предприятий, имеющих стабильный спрос на мировом рынке.

За последние годы в нашей республике достигнуты важные результаты по развитию химической промышленности, эффективному использованию химических средств и препаратов, применяемых в сельском хозяйстве, локализации импортируемых товаров. В 3-м направлении новой Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы, которое называется опережающим развитием национальной экономики и обеспечением высоких темпов роста, «промышленность, направленная на обеспечение стабильности национальной экономики, решает важные задачи» такие как продолжение реализации политики, увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте и увеличение объема производства в промышленности в 1,4 раза...<sup>2</sup>». В связи с этим большое значение имеет извлечение нафталиновых соединений из пиролизного масла на основе местного сырья и повышение выхода нафтилукусных кислот синтеза из нафталина, а также разработка усовершенствованной технологии получения нафтилукуса.

